

MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

M.Z.Mamatxonov¹, B.N.Muydinov¹

1. University of Economics and Pedagogy, Andijan, O'zbekiston.

Correspondence: Mamatxonov Muxitdin Zuxriddinovich, University of Economics and Pedagogy, Andijan, Uzbekistan. **e-mail:** Mamatxonov@internet.ru

Received: 02 February 2025; **Accepted:** 15 February 2025; **Published:** 20 February 2025.

Abstract. Xalqaro hamjamiyat bilan o'zaro aloqalarni kuchaytirish, yaxshi munosabatlarni yanada yangi bosqichlarga ko'tarish natijasida O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga qo'shimcha investitsiyalar jalb qilish imkoniyati ortib boradi. Buning uchun buxgalteriya hisobining xorijiy investorlar tushunadigan, investitsiyalar qilish uchun qarorlar qabul qilishlariga imkon beradigan xalqaro standartlarga o'tilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu yo'lda tegishli harakatlar 1987 yildan boshlangan bo'lib, mamalakatimizda xorijiy korxonalar bilan hamkorlik ishlari yo'lga qo'yila boshlangan, jumladan chet el kapitali ishtirokida qo'shma korxonalar tuzila boshlangan. Iqtisodiyotni barcha sohalarini qayta qurish bilan buxgalteriya hisobini takomillashtirish dolzarb masala sifatida yuzaga kelgan va mazkur yo'nalishda yangi schyotlar rejasiga o'tish ilk qadamlardan biri bo'lgan. Amalga oshirilgan ishlar natijalariga asoslangan holda 1991 yil 1 noyabrda «Korxonalar moliya-xo'jalik faoliyatini buxgalteriya hisobining Schyotlari rejasi va uni qo'llash bo'yicha Yo'riqnoma» tasdiqlangan va ularni 1992 yil 1 yanvardan amalga kiritish tavsiya etilgan. Likin shu kungacha buxgalteriya hisobini xalqaro standartlariga to'liq o'tildi deb ayta olmaymiz. Ushbu holat, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: muammolar va yechimlar mavzusini dolzarbligini belgilab beradi.

Keywords. buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, pul oqimlari haqidagi hisobot, xususiy kapital to'g'risidagi hisobot, izohlar, hisob-kitoblar, tushuntirishlar, buxgalteriya hisobining milliy standartlari, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, aktivlarning qadrsizlanishi, annuitetlar, xaqqoniy qiymat, balans qiymati.

Xalqaro hamjamiyat bilan o'zaro aloqalarni kuchaytirish, yaxshi munosabatlarni yanada yangi bosqichlarga ko'tarish natijasida O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga qo'shimcha investitsiyalar jalb qilinishi mumkin.

Buning uchun buxgalteriya hisobining xorijiy investorlar tushunadigan, investitsiyalar qilish uchun qarorlar qabul qilishlariga imkon beradigan xalqaro standartlarga o'tilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bu yo'lda tegishli harakatlar 1987 yildan boshlangan bo'lib, mamalakatimizda xorijiy korxonalar bilan hamkorlik ishlari yo'lga qo'yila boshlangan, jumladan chet el kapitali ishtirokida qo'shma korxonalar tuzila boshlangan.

Iqtisodiyotni barcha sohalarini qayta qurish bilan buxgalteriya hisobini takomillashtirish dolzarb masala sifatida yuzaga kelgan va mazkur yo'nalishda yangi schyotlar rejasiga o'tish ilk qadamlardan biri bo'lgan.

Amalga oshirilgan ishlar natijalariga asoslangan holda 1991 yil 1 noyabrda «Korxonalar moliya-xo'jalik faoliyatini buxgalteriya hisobining Schyotlari rejasi va uni qo'llash bo'yicha Yo'riqnoma» tasdiqlangan va ularni 1992 yil 1 yanvardan amalga kiritish tavsiya etilgan.

Mazkur yangi hisobvaraqlar rejasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining transmilliy korporatsiyalari ekspertlari, xorijiy olimlar ishtirokida ishlab chiqilgan.

Bir qator nazariy va amaliy harakatlarni amalga oshirilishiga qaramasdan buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarni amaldagi tizimi bilan halqaro amaliyotdagi farq saqlanib qolgan.

Bu O'zbekistonni tashqi iqtisodiy munosabatlarni to'laqonli rivojlantirishida, uni halqaro iqtisodiy hamjamiyatga integratsiyalashuvida, xorijiy investitsiyalarni jalb etishda jiddiy qiyinchiliklarni yuzaga keltirgan.

1996 yil 30 avgust kuni O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi Qonuni"ning qabul qilinishi bilan O'zbekiston Respublikasida xalqaro standartlarga o'tish jarayonidagi to'siqlar bartaraf etila boshlandi.

Qonunning 16-moddasida moliyaviy hisobotning turlari ko'rsatilgan:

Yillik moliyaviy hisobot quyidagilarni o'z ichiga oladi:

buxgalteriya balansi;

moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot;

pul oqimlari haqidagi hisobot;

xususiy kapital to'g'risidagi hisobot;

izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar[1].

Yuqorida keltirilgan hisobot turlari moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridagi hisobot turlari bilan aynan bir xil edi.

Buxgalteriya hisobining milliy standartlari ham moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida yozilgan bo'lsada, milliy standartlarning xuquqiy asoslari yaratilmaganligi mazkur standartlar bilan ishlanmaganligi uchun ular amaliyotda o'z o'rnini topmadi.

Buxgalteriya hisobining milliy standartlarini amaliyotchi buxgalterlar tomonidan to'la o'zlashtirilmaganligi esa ularni xalqaro standartlarini anglashlarini ular bilan ishlashlarini qiyinlashtirmoqda.

Moliyaviy hisobotni xalqaro standartlarini tushunishda avvalo mazkur standartda qo'llanilgan terminlarning yangiligi yoki tushunarsizligi (tarjima qilinish jarayonida yuz bergan g'alizliklar natijasida) birinchi to'siq yuzaga chiqdi.

Ayrim hollarda xalqaro standartlarda nazarda tutilgan holatlarning amaliyotda mavjud emasligi yoki bir hil terminning xar hil talqin etilishi natijasida standartlarni tushunishning murakkablashib ketishi kuzatila boshlandi.

Masalan, aktivlarning qadrsizlanishi, annuitetlar, xaqqoniy qiymat va boshqa tushunchalarning faoliyatimizga kirib kelishi ham juda ko'pchilik uchun yangilikdir.

Aktivning qoplanadigan qiymati uning balans qiymatidan ortib ketishi qadrsizlanishdan zararni keltirib chiqaradi va u korxonalarning moliyaviy holati to'g'risidagi hisobotda o'z aksini topadi. Aynan shu holat amaliyotdagi buxgalterlar uchun "jiddiy" jarayondir. Chunki avvalgi tizimda buxgalteriya hisobining milliy standartlarida bunday jarayon bo'lmagan. Aktivlarning qadrsizlanishi bo'yicha 36 sonli buxgalteriya hisobining xalqaro standarti "Aktivlarning qadrsizlanishi deb ataladi va aynan shu standartni amaliyotchi buxgalterlarga alohida dars sifatida o'tilishi va ularga yon daftarcha sifatida maqsadga muvofiq bo'lar edi.

To'g'ri, buxgalterlar va auditorlarning jamoat tashkilotlari tomonidan to'xtovsiz tarzda o'qishlar va malaka oshirish ishlari amalga oshirilib bormoqda, lekin bu tadbirlarni yetarli deb bo'lmaydi.

Shunday atamalardan yana biri annuitetlar bo'lib mazkur atama bank sohasida keng qo'llanilayotgan bo'lsada ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlarida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun yangilikdir.

Ayrim hollarda kasbga oid bo'lgan muloxazalar qilishda ham buxgalterlar yetarli bilim va tajribaga ega emasliklari sababli qiynalmoqdalar. Buxgalterlarning kasbiy mulohazalari moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida katta ahamiyatga ega, bizning amaliyotda esa u katta yangilik. Aytaylik bitta binoning qancha xizmat qilish muddatini aniqlash uchun buxgalterning kasbiy mulohazasidan foydalaniladi. Bu juda murakkab jarayon bo'lmasada buxgalterlar bunday mulohazalarni amalda bajarmaganliklari uchun bu ish amalda qiyin tuyulishi mumkin.

Eng asosiy masalalardan yana biri bu hisobvaraqlar rejasi bilan ishlashdir.

Buxgalterlar amaliyotda hisobvaraqlar rejasi bilan ishlab o'rganganlar. Bu moliyaviy hisobotning

xalqaro standartlarida ko'zda tutilmagan. Shuningdek, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida kontraktiv va kontrpassiv hisobvaraqlar tushunchalaridan ham foydalanilmaydi.

Mazkur masalalarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari kengashiga hisobvaraqlar rejasini qo'llash, kontraktiv va kontrpassiv hisobvaraqlardan foydalanish taklifini kiritish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Chunki, hisobvaraqlar rejasini qo'llanilishi buxgalterlarning ishlarini osonlashtirishi va fundamental sifat asoslarini yaxshilashga xizmat qilishi mumkin.

Amaliyotda xujjatlar bilan ishlash qat'iy qat'iy talab sifatida yo'lga qo'yilganligi sababli moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bilan ishlashda biroz qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Masalan xujjatlarni rasmiylashtirish xalqaro standartlar uchun unchalik katta ahamiyatga ega emas.

Aytaylik, xalqaro standartlar bo'yicha qurilishi 70-80 foiz atrofida tugallangan qurilish binosini dalolatnomasi tuzilmasdan asosiy vositalar tarkibiga kiritish mumkin. Amaliyotda esa qurib bitkazilgan binolarni ham ishlab chiqarishda qatnashayotgan bo'lsada qabul dalolatnomalari bo'lmaganligi sababli asosiy vositalar tarkibiga kiritilmaydigan xolatlar mavjud.

Bundan tashqari, xejlashtirish, opsiolar, varrantlar, derivativlar kabi amaliyotimizda qo'llanilmaydigan atamalarning kirib kelishi amaliyotchi buxgalterlarga qator muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Bu sohada iqtisod fanlari nomzodi, dotsent E.Muydinov va boshqalarning "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: 1000 ta testga 1000 javob" o'quv qo'llanmasida xar bir mavzu boshlanishida berilgan asosiy tayanch so'z va iboralardan foydalanish mumkin[2].

Biroq, mazkur qo'llanma va boshqa adabiyotlardan, darsliklardan foydalanish yetarli emas. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridagi yangi atamalarning xar biriga berilgan tariflari bilan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tayotgan korxonalar kutubxonalarini ta'minlanishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Shuningdek ayrim standartlarni amaliyotga joriy etish ham bir qancha muammolarni taqdim etmoqda.

Masalan, "Zaxiralar" deb nomlangan 2-sonli moliyaviy hisobotning xalqaro standartining 18 – moddasida tadbirkorlik sub'ekti tovar-moddiy zaxiralarni to'lov muddatini uzaytirib to'lash shartlarida sotib olishi mumkin deb ko'rsatilgan[3].

Agar bunday kelishuv amalda moliyalashtirish elementini o'z ichiga olsa, bu element, masalan, odatdagi shartlarda kreditga sotib olish narxi va to'lov summasi orasidagi farq, ushbu moliyalashtirish davrida foiz xarajatlari sifatida tan olinishi shart deb ko'rsatilgan.

Masala bu yerda sotib olinayotgan zaxiralarning to'lov muddatini uzaytirib to'lash shartlarida ustida ketyapti. To'lovning bo'lib to'lanishi xaqiqatdan ham foiz xarajatlari sifatida tan olinishi kerakligini anglatadi.

Biroq, yillar davomida o'rganilgan hisob usullaridan birdaniga voz kechish yangi tizimni yaxshi o'zlashtirishni(bilimni) talab qiladi, salbiy tomoni esa zaxiralar hisobida o'zlashtirish uchun yangi "tuyruk"lar vujudga kelishi mumkin.

Hisobvaraqa fakturalarda moddiy qiymatliklar butligi saqlanishi uchun qabul qilinayotgan zaxiralar to'la aks ettirilishi, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida ko'zda tutilgan istisnolardan foydalanish, vaqt oralig'ida vujudga keladigan farqlarni esa moliyaviy xarajatlarga olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ana shunday muammolardan yana biri bu barter va barter muomalalarini hisobga olish masvalasidir.

Barter – bu ayirboshlash shartnomasi bo'lib, unda shartnoma ob'ektlariga bo'lgan mulk huquqi puldan foydalanilmagan holda uning taraflari o'rtasida almashtiriladi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarning barchasida barter muomalalari to'la va tartibli ravishda qo'llaniladi. Mazkur vosita yordamida katta miqdordagi debitorlik qarzlari yopiladi va iqtisodiy ko'rsatkichlar yaxshilanadi.

Barter muomalalarini qo'llanilishi barcha korxonalarda moliyaviy holatning yaxshilanishiga, ombordagi zaxiralarning kamayishiga va tegishli ravishda daromadlarning ortishiga olib kelishi mumkin bo'ladi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining deyarli barchasida barter yoki aktivlarni aktivlarga almashish bo'yicha hisob kitoblarga alohida e'tibor berilgan.

Ayirboshlash shartnomasiga muvofiq har bir taraf boshqa tarafga bir tovarni boshqa tovarga almashtirish yo'li bilan mulk qilib topshirish majburiyatini oladi.

Barter muomalalarini qo'llanilishi barcha korxonalarda moliyaviy holatning yaxshilanishiga, ombordagi zaxiralarning kamayishiga va tegishli ravishda daromadlarning ortishiga olib kelishi mumkin bo'ladi.

Shuningdek, xalqaro hamjamiyat tomonidan barter muomalalari keng qo'llanilishi, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining deyarli barchasida barter muomalalari tartibga solinganligiga qaramay O'zbekiston Respublikasi hududida 23 yildan buyon barter muomalalari taqiq ostida qolmoqda.

1996 yildan boshlab mamlakat doirasida taqiqlangan (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 9.08.1996 yildagi «Byudjet bilan hisob-kitoblar uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-1504-son Farmonining 4-bandi)[4];

-eksport va import qilishga ruxsat etilgan, yuqori likvidli tovarlar bundan mustasno (13.08.1996 yildagi «Barter asosidagi eksport-import operatsiyalarini qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida» 280-son VMQning 1-bandi)[5] ga muvofiq taqiqlangan.

Buning asosiy sabablari:

- tovarlar (xizmatlar) bozori yetarli darajada rivojlanmagan sharoitlarda tovarlar va xizmatlarni baholashning murakkabligi;

- tovar ayirboshlash muomalalaridagi muammolar;

- soliq solish bilan bog'liq muammolar.

Barter muomalalari va uning mexanizmini takomillashtirish orqali hayotga tadbiq etish zaruriyatini qayta ko'rib chiqish va xalqaro standartlar bilan birgalikda amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

O'zbekiston hududida moliyaviy hisobning xalqaro standartlarini joriy etilishi va bozor iqtisodiyotining rivojlantirilishida demokratik taomillarga amal qilinishi hamda umumiy iqtisodiy vaziyat ayirboshlash muomalalarini har hil taqiqlashlardan chiqarish kerak degan hulosaga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 30 avgustda qabul qilingan «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi 279-I-sonli Qonun 16-moddasi.

[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 9.08.1996 yildagi «Byudjet bilan hisob-kitoblar uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-1504-son Farmonining 4-bandi.

[3] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 13 avgustdagi «Barter asosidagi eksport-import operatsiyalarini qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida» 280-son qarori.

[4] Muydinov E. "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: 1000 ta testga 1000 javob" o'quv qo'llanma. "Iqtisodiyot dunyosi"-2020. 26-26 betlar.

[5] "Zaxiralar" buxgalteriya hisobining 2-sonli xalqaro standarti. 18- modda. QMMB: 10/22/3400/1087-son 13.12.2022-y.